


KLASSIKLAR BOLALARGA

K.D. USHINSKIY

# BEGONA TUXUM



84(2Ros=Rus)6

U-88

**Ushinskiy, Konstantin Dmitriyevich**

Begona tuxum: adabiy ertak/ K.D. Ushinskiy; to'plovchi M. Mir-Ortiqova; tarjimon Q. Mirmuhamedov.-Toshkent: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. - 14 b. - (Klassiklar bolalarga).


**KBK 84(2Ros=Rus)6**

**UO'K: 821.161.1.=398.22**



ISBN 978-9943-06-464-5

© Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013-y.



**KLASSIKLAR BOLALARGA**

**K.D. USHINSKIY**

# **BEGONA TUXUM**

(Adabiy ertak)

Rus tilidan Qodir Mirmuhamedov tarjiması

Rassom

Ilhom Xolxo'jayev



Allsher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti  
TOSHKENT – 2013

**Darya kampir erta tongda turib, tovuqxonaning eng xilvat, qorong‘u burchagiga savat qo‘ydi, savatga yumshoq pichan to‘shab, ustiga o‘n uch dona tuxum terdi-da, tuxumlar ustiga baroq tovuqni o‘tqazdi.**

**Kun endi g‘ira-shira yorishib kelayotgan edi, shuning uchun kampir tuxumlardan bittasi boshqalaridan kattaroq va ko‘kishroq ekanini payqamadi.**







Tovuq hafsala bilan tuxumlarni bosib o'tiraverdi; u g'irillab borib, don cho'qib, suv ichardi-da, yana qaytib kelib o'rnida yotaverardi, boyaqish tullab ham ketdi. Biram badjahl bo'lib ketdiki, nuqul qaqolagani-qaqolagan, hatto xo'rozni ham yaqin yo'latmay qo'ydi, xo'roz esa, qorong'u burchakda nimalar bo'layotganini o'z ko'zi bilan ko'rib, bilgisi kelardi.



**Tovuq uch haftacha o'tirgandan keyin, birin-ketin jo'jalar tumshuqchalari bilan tuxum po'chog'ini yorib chiqishgan zahoti patchalarini hurpaytirib silkinishardi-da, zir-zir yugura boshlashardi, panjalari bilan tuproq titib, chuvalchang qidirishardi.**

**Ko'kimtir tuxum ichidagi jo'ja eng keyin chiqdi. Lekin u dum-dumaloq, momiqday yumshoq, sap-sariq, oyoqlari kalta-kalta, tumshug'i yalpoq edi.**







«Bu jo‘jam juda antiqa chiqdi, — deb o‘yladi ona tovuq. — Cho‘qishiyam, yurishiyam boshqacha: tumshug‘i yalpoq, oyoqlari kalta, allaqanday maymoq, ayqalib-chayqalib yuradi».



Ona tovuq o'z jo'jasidan taajjublangan bo'lsa ham, baribir uni yaxshi ko'rardi, qanday bo'lsa ham, o'z farzandi edi-da. Uni ham boshqa jo'jalaridek ardoqlab, avaylab parvarish qila boshladi.

Ona tovuq bolalariga qanday qilib yer titib, chuvalchang topishni o'rgata boshladi, keyin butun oilani ko'l bo'yiga boshlab ketdi, chunki u yer yumshoq, chuvalchang ham ko'p edi. Maymoq oyoq jo'ja ko'lni ko'rishi bilan pildirab borib o'zini suvga tashladi.



**Ona tovuq qaqolab qanotlarini silkitar, nuqul suvga talpinar edi, jo'jalar ham bezovta bo'la boshlashdi: ular zir yugurishar, pitirlashar, chiyillashardi, bitta jo'ja-xo'roz hatto**



qo'rqqanidan bir tosh ustiga sakrab chiqib, bo'ynini cho'zganча bo'g'iq ovoz bilan umrida birinchi marta «Qu-qu-qu-u!» deb qichqirib yubordi. Bu bilan u: hoy yaxshilar, yordam qilinglar, ukamiz suvga cho'kib ketadi, demoqchi bo'lgan edi. Lekin uka cho'kmadi, balki bamaylixotir o'zining yoyiq pardali panjalari bilan suv betida xuddi bir parcha qog'ozdek yengil suza boshladi.





Ona tovuqning qaqolaganini eshitgan Darya kampir uydan yugurib chiqib yuz bergan voqeani ko'rdi-yu, chinqirib yubordi:

— Voy, o'lmasam! Qarilik qursin, tovuqqa bilmasdan o'rdak tuxumini bostirgan ekanman-ku!

Ona tovuq bo'lsa hamon ko'lga talpinardi. Darya kampir uni suv bo'yidan haydab uzoqlashtirdi.





*Adabiy-badiiy nashr*

## **KLASSIKLAR BOLALARGA**

KONSTANTIN DMITRIYEVICH USHINSKIY

# **BEGONA TUXUM**

*(Adabiy ertak)*

*Ruschadan Qodir Mirmuhamedov tarjimasini  
Nashr uchun mas'ul: Nazarxurshed Hamidov*

Muharrir *Sh. Qurbon*  
Rassom *I. Xobxo'jayev*  
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*  
Musahhih *M. Mir-Ortiqova*

Nashriyot litsenziyasi: AI № 159, 14.08.2009. Bosishga 10.03.2013 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ . Shartli bosma tabog'i 1,09. Nashr tabog'i 1,57. Adadi 5000 nusxa. 172-raqamli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,  
Toshkent shahri, Istiqlol ko'chasi, 33.

MChJ «SHIDASP» matbaa korxonasi chop etildi.  
Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Sobir Raximov ko'chasi, 70b.



ISBN 978-9943-06-464-5



9 789943 064645